


FARZAND BYUDJETI BOSQICHLARI

01



0–3 YOSH: CHAQALOQLIK DAVRI

ASOSIY XARAJATLAR

- **Tugʻruq va tibbiy xizmat** - kasalxona toʻlovlari, vaksinasiya va tibbiy tekshiruvlar
- **Oziq-ovqat va gigiena vositalari** - ona sutiga qoʻshimcha ovqatlar, pamperslar, shampunlar
- **Bolalar kiyimlari va buyumlari** - tez ulgʻayishni hisobga olgan holda, asosiy zaruriy buyumlar xarid qilinadi
- **Bolalar jihozlari** - bolalar yotogʻi, arava

02



3–6 YOSH: MAKTABGACHA TA'LIM VA RIVOJLANISH

ASOSIY XARAJATLAR

- **Bolalar bogʻchasi** - davlat va xususiy bogʻchalar oʻrtasida tanlov
- **Qoʻshimcha taʼlim va hunar oʻrganish** - ingliz tili kurslari, musiqa yoki sport toʻgaraklari
- **Oʻyinchoqlar va oʻquv vositalari** - bola salohiyatini rivojlantirish uchun yangi oʻyinlar va materiallar
- **Kiyim-kechak va poyabzal** - har faslga mos kiyimlarni tayyorlash

03



7–18 YOSH: MAKTAB TA'LIMI VA O'SMIRLIK DAVRI

ASOSIY XARAJATLAR

- **Maktab kiyimi va anjomlari** - oʻquv yiliga tayyorgarlik xarajatlari.
- **Transport va ovqatlanish** - maktabga qatnashi uchun yoʻl haqi va kundalik ovqat.
- **Qoʻshimcha taʼlim kurslari** - repetitorlar, chet tillari, sanʼat va sport toʻgaraklari.
- **Kompyuter va texnologiyalar** - zamonaviy oʻquv jarayoni uchun texnik uskunalar.
- **Maktabdan tashqari faoliyatlar** - sport musobaqalari, lagerlar, sayohatlar.

04



18+ YOSH: OLIY TA'LIM VA MUSTAQIL HAYOT

ASOSIY XARAJATLAR

- **Oliy taʼlim xarajatlari** - davlat grantlari, kontrakt toʻlovlari.
- **Yotoqxona yoki ijara haqi** - talabalar uchun turar joy toʻlovlari.
- **Transport va kundalik xarajatlar** - shaxsiy ehtiyojlar uchun mablagʻ.
- **Oliy taʼlimda qoʻshimcha kurslar** - sertifikat dasturlari, xorijda oʻqish imkoniyatlari.

HURMATLI OTA-ONALAR!

- Bola dunyoga kelishi bilan taʼlim, sogʻliq, oziq-ovqat va boshqa ehtiyojlar uchun doimiy xarajatlar yuzaga keladi. Shu sababli, oldindan rejalashtirilgan byudjet nafaqat moliyaviy bosimni kamaytiradi, balki bolaning farovon kelajagini ham kafolatlaydi.